

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 404 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUYUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIK YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FONDlardan VA ISHLAB CHIQRISH QUvvATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'llARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'llARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	



MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Zufarova Zilola Rahim qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy hisobot ishonchliligining iqtisodiy mohiyati, uning korxona faoliyati samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Moliyaviy hisobot ishonchliligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilinib, jumladan, hisob siyosatining nomuvofiqligi, ichki nazorat tizimining samarasizligi, buxgalteriya ma'lumotlarining sifatsizligi, firibgarlik holatlari hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishdagi muammolar yoritib berilgan. Shuningdek, moliyaviy hisobot ishonchliligini oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq hisob siyosatini shakllantirish, ichki audit va ichki nazorat tizimini kuchaytirish, hisob jarayonlarini avtomatlashtirish, axborot shaffofligini ta'minlash hamda mustaqil audit rolini oshirish masalalari ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, ishonchlilik, hisob siyosati, ichki nazorat, ichki audit, moliyaviy axborot sifati, shaffoflik, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, buxgalteriya hisobi, firibgarlik riski.

Abstract. This article examines the economic nature of financial reporting reliability and its importance in assessing enterprise performance and making management decisions. It systematically analyzes factors that negatively impact financial reporting reliability, including inconsistencies in accounting policies, ineffective internal control systems, poor-quality accounting data, fraud, and information technology issues. The article also provides a scientifically substantiated approach to improving financial reporting reliability, including aligning accounting policies with international financial reporting standards, strengthening internal audit and internal control systems, automating accounting processes, ensuring information transparency, and enhancing the role of independent audit.

Keywords: financial reporting, reliability, accounting policy, internal control, internal audit, quality of financial information, transparency, international financial reporting standards, accounting, fraud risk.

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическая сущность достоверности финансовой отчётности, её значение при оценке эффективности предприятия и принятии управленческих решений. Систематически анализируются факторы, негативно влияющие на достоверность финансовой отчётности, включая несоответствие учётной политики, неэффективность системы внутреннего контроля, низкое качество бухгалтерских данных, случаи мошенничества и проблемы использования информационных технологий. Также в качестве основных направлений повышения достоверности финансовой отчётности научно обоснованы вопросы учётной политики в соответствии с международными стандартами финансовой отчётности, усиления системы внутреннего аудита и внутреннего контроля, автоматизации бухгалтерских процессов, обеспечения информационной прозрачности и повышения роли независимого аудита.

Ключевые слова: финансовая отчётность, достоверность, учётная политика, внутренний контроль, внутренний аудит, качество финансовой информации, прозрачность, международные стандарты финансовой отчётности, бухгалтерский учёт, риск мошенничества.

KIRISH

Moliyaviy hisobot har qanday korxona yoki tashkilot faoliyatining iqtisodiy holatini aks ettiruvchi muhim axborot manbai hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotning ishonchliligi foydalanuvchilar — investorlar, kreditorlar, soliq idoralari hamda boshqaruv organlari uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu hisobot orqali korxona faoliyatini baholash, moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish, investitsiya va



kredit qarorlarini qabul qilish, shuningdek, tashqi va ichki manfaatdor tomonlar uchun shaffof hamda ishonchli axborot taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

Bugungi kunda moliyaviy hisobotning ishonchlilikini ta'minlash maqsadida qator zamonaviy metodlar va yo'nalishlar keng qo'llanilmoqda. Jumladan, bu jarayonda buxgalteriya ma'lumotlarini to'liq va aniq yuritish, ichki nazorat va audit tizimlarini takomillashtirish, axborot texnologiyalarini joriy etish, hisob siyosati hamda buxgalteriya standartlariga qat'iy rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, ishonchli moliyaviy hisobot korxonaning samarali boshqaruvini ta'minlash, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va tashqi foydalanuvchilar uchun shaffof axborot muhitini shakllantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobot va uning ishonchlilikini oshirish masalalari bo'yicha iqtisodchi olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar va qarashlar ilgari surilgan. Xususan, L. Ripoll va J. Matosning ta'kidlashicha, "axborotning ishonchliliği oldindan belgilangan mezonlar asosida ma'lum bir axborot mazmunining rostgo'yiligi va ishonchlilikini aniqlash jarayoni sifatida talqin etiladi. Mazkur jarayon taqdim etilgan axborotga bo'lgan ishonchni saqlab qolish darajasi qanchalik asosli ekanligini baholashga xizmat qiladi" [1].

Boshqa bir guruh iqtisodchi olimlarning fikricha, "investorlar kompaniyalarning moliyaviy hisobotlaridan foydalangan holda investitsiyalarni davom ettirish yoki kapitalni olib chiqish bo'yicha qarorlar qabul qiladilar. Shu bilan birga, ishonchli moliyaviy hisobotlar yetkazib beruvchilar va kreditorlarga kompaniya bilan hamkorlikni boshlashdan oldin uning iqtisodiy barqarorligini baholash imkonini beradi" [2].

M. Arkas-Pellicer, V. Pina va L. Torres tomonidan olib borilgan tadqiqotda moliyaviy hisobotning ishonchliliği masalasi chuqur tahlil qilinib, quyidagi xulosa ilgari surilgan: "agar direktorlar kengashi faoliyatni samarali nazorat va monitoring qilish uchun yetarli tajriba hamda tarkibiy xilma-xillikka ega bo'lsa, moliyaviy hisobotlarning yuqori darajadagi ishonchlilikini ta'minlash mumkin" [3].

Ayrim iqtisodchi olimlar moliyaviy hisobot ishonchlilikini oshirishda xalqaro standartlarning roliga alohida e'tibor qaratib, shuni ta'kidlaydilar, "moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) qo'llovchi kompaniyalar mahalliy buxgalteriya hisobi standartlaridan foydalanuvchi kompaniyalarga nisbatan moliyaviy hisobot sifati va taqqoslanish darajasi bo'yicha ustunlikka ega bo'ladi. Natijada, bunday kompaniyalar bozorda yanada yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishi mumkin" [4].

T. Yu. Drujilovskaya, T. N. Korshunova va A. A. Xodyrevlarning fikriga ko'ra, "moliyaviy hisobotning ishonchliliği unda aks ettirilgan ma'lumotlarning haqqoniyiligi bilan belgilanadi. Ushbu ma'lumotlar tashkilotning moliyaviy holati va faoliyat natijalarini real aks ettirishi hamda foydalanuvchilarga asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkonini berishi lozim" [5].

N. Sh. Xajimuratov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosa chiqarilganki, "xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarining xalqaro standartlar asosida taqdim etilishi investorlar uchun muhim va ishonchli axborot manbai hisoblanadi. Chunki xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar yuqori darajadagi haqqoniylik va ishonchlilik bilan ajralib turadi" [6].

S. A. Abdug'aniyevaning ta'kidlashicha, "moliyaviy hisobot tashkilot faoliyatining moliyaviy natijalarini tahlil qilish, soliq solish, strategik rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Uning ishonchliliği va shaffofligi bozor ishtirokchilari o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi" [7].

O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodchi olimlar tomonidan moliyaviy hisobotning ishonchliliği masalasi turli nazariy va amaliy jihatlar orqali keng yoritilgan. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotlar moliyaviy hisobot ishonchlilikini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni yanada tizimli va chuqurroq o'rganish zaruratini yuzaga chiqaradi, bu esa kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning asosiy va umumqabul qilingan metodlaridan samarali foydalanildi. Jumladan, tahlil qilinayotgan masalalarni chuqur va tizimli o'rganish maqsadida taqqoslash, analiz va sintez, shuningdek, induksiya hamda deduksiya usullari qo'llanildi. Ushbu metodlar tadqiqot obyekti har tomonlama tahlil qilish, nazariy xulosalarni shakllantirish hamda ilmiy asoslangan yakuniy natijalarga erishishni ta'minladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va amaliy ma'lumotlarni o'rganish hamda umumlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa o'rganilayotgan muammoning nazariy asoslarini mustahkamlash, ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarini qiyosiy tahlil qilish va tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi hamda amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobotning ishonchliligi — bu hisobotlarda aks ettirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, haqqoniyligi hamda foydalanuvchilar talablari va iqtisodiy voqelikka moslik darajasini ifodalaydi. Ya'ni, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida qabul qilingan qarorlar kompaniyaning real moliyaviy holati va faoliyat natijalarini to'liq hamda aniq aks ettirishi lozim. Ishonchlilik tushunchasi buxgalteriya hisobining asosiy talablaridan biri bo'lib, uning bosh maqsadi manfaatdor foydalanuvchilarni haqqoniy va ishonchli axborot bilan ta'minlashdan iborat.

Moliyaviy hisobotning ishonchliligi faqat raqamlarning aniqligi bilan cheklanmaydi, balki ma'lumotlarning foydalanuvchilar uchun ahamiyatliligi, ularning tegishli iqtisodiy kontekstda to'liq va tushunarli tarzda taqdim etilishini ham o'z ichiga oladi. Bugungi kunda korporativ boshqaruv va moliyaviy nazorat tizimlarida moliyaviy hisobot ishonchliligining roli tobora ortib bormoqda, chunki globallashtirilgan investitsiya muhitida kompaniyalar faoliyati to'g'risida tezkor, aniq va solishtiriladigan axborotga bo'lgan talab doimiy ravishda kuchayib bormoqda (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy hisobot ishonchliligini ta'minlovchi asosiy omillar¹

Hisob siyosatining standartlarga muvofiqligi korxonaning buxgalteriya hisobini yuritishda qo'llanilayotgan prinsip va qoidalarning Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) yoki Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS/IFRS) talablariga mos kelishini anglatadi. Standartlarga muvofiq shakllantirilgan hisob siyosati moliyaviy hisobotning ishonchliligini oshiradi hamda uning xalqaro audit standartlari talablariga mosligini ta'minlaydi.

Ishonchli va aniq buxgalteriya ma'lumotlari korxonaning moliyaviy holatini to'liq, haqqoniy va xato-kamchiliklarsiz aks ettiruvchi axborotlar majmuasidir. Bunday ma'lumotlar moliyaviy hisobot sifatining asosi bo'lib, foydalanuvchilarning hisobotga bo'lgan ishonchini shakllantiruvchi fundamental omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ichki nazorat va audit jarayonining samaradorligi buxgalteriya hamda moliyaviy hisob-kitoblar ustidan amalga oshiriladigan ichki nazorat mexanizmlari va audit faoliyatining natijadorlik darajasini ifodalaydi. Ichki

¹ Muallif ishlanmasi.



nazorat va audit jarayonlarining samarali tashkil etilishi moliyaviy hisobotning ishonchliligini ta'minlash, moliyaviy xatarlarni kamaytirish va korporativ boshqaruvni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaffoflik va foydalanuvchi uchun ahamiyatlilik moliyaviy hisobotning tashqi va ichki foydalanuvchilar uchun to'liq, tushunarli hamda iqtisodiy qarorlar qabul qilishda foydali bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu tamoyillarga rioya qilinishi hisobotning foydalanuvchiga yo'naltirilganligini ta'minlaydi va moliyaviy axborotlarning ishonchliligini yanada oshiradi.

Moliyaviy hisobotning ishonchliligi zamonaviy korporativ boshqaruv va moliyaviy nazorat tizimining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat korxonaning ichki faoliyati samaradorligini oshirishga, balki investorlar va kreditorlar uchun ishonchli axborot taqdim etishga xizmat qiladi. Ishonchli moliyaviy hisobot strategik va taktik rejalashtirishni samarali amalga oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, moliyaviy audit va ichki nazorat tizimlarining natijadorligini ta'minlash uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bunday hisobotlar global iqtisodiy muhitda barqaror investitsion va moliyaviy qarorlarni asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. Moliyaviy hisobot ishonchliligini pasaytiruvchi asosiy omillar²

№	Omillar	Mazmuni	Moliyaviy hisobotga ta'siri
1	Buxgalteriya ma'lumotlarining sifati pastligi	Xo'jalik operatsiyalarining to'liq va aniq qayd etilmasligi holatlari	Moliyaviy ko'rsatkichlarda xatoliklar yuzaga kelishi, hisobotga bo'lgan ishonchning pasayishi
2	Ichki nazorat tizimining yetarli darajada samarali emasligi	Xatolar va firibgarliklarni o'z vaqtida aniqlash imkoniyatlarining cheklanganligi	Axborotlarning haqqoniyligi va ishonchliligi darajasining pasayishi
3	Hisob siyosatining standartlarga muvofiq emasligi	BHMS yoki MHXS (IFRS) talablariga to'liq rioya qilinmasligi	Moliyaviy hisobotlarning taqqoslanish va shaffoflik darajasining kamayishi
4	Firibgarlik holatlarining mavjudligi	Daromadlarni sun'iy oshirish yoki xarajatlarni asossiz kamaytirish	Investorlar va kreditorlar uchun noto'g'ri axborot shakllanishi
5	Soliq va qonunchilikdagi o'zgarishlar	Normativ-huquqiy hujjatlarning tez-tez yangilanib borilishi	Hisobotlarni tuzishda xatolar yuzaga kelishi, ishonchlilik darajasining pasayishi
6	Axborot texnologiyalari va avtomatlashtirishdagi muammolar	Buxgalteriya dasturlaridagi texnik nosozliklar va tizim xatolari	Ma'lumotlarning yo'qolishi yoki buzilishi, axborot ishonchliligining pasayishi

Buxgalteriya ma'lumotlarining sifatsizligi moliyaviy hisobotning ishonchliligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu holat noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan hisob-kitoblar, buxgalteriya hujjatlaridagi xatolar, ma'lumotlarning kechiktirib yoki noto'g'ri kiritilishi, shuningdek, hisobotni to'ldirish jarayonida standartlashtirish talablariga yetarli darajada rioya qilinmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Natijada, sifatsiz axborot foydalanuvchilar uchun moliyaviy holatning real manzarasini to'liq aks ettirmaydi, bu esa investitsiya, kreditlash va moliyaviy nazorat bo'yicha qarorlarning sifatiga ta'sir ko'rsatishi ehtimolini oshiradi.

Ichki nazorat tizimi moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish, xatolar, firibgarlik holatlari hamda huquqbuzarliklarni aniqlashga xizmat qiluvchi institutsional mexanizm hisoblanadi. Agar ushbu tizim yetarli darajada samarali tashkil etilmagan bo'lsa, buxgalteriya ma'lumotlari o'z vaqtida tekshirilmasligi, kamchiliklar va nomaqbul holatlarning kech aniqlanishi ehtimoli ortadi. Samarali ichki nazorat tizimi esa moliyaviy axborotlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlashda muhim boshqaruv vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Hisob siyosati tashkilotning buxgalteriya hisobini yuritishda qo'llaniladigan qoidalar va prinsiplardan iboratdir. Hisob siyosatining BHMS yoki MHXS (IFRS) talablariga muvofiq shakllantirilmasligi moliyaviy ma'lumotlarning noto'g'ri aks ettirilishiga olib kelishi mumkin. Bunday holat daromad va xarajatlarning sun'iy o'zgarishiga sabab bo'lib, hisobot ma'lumotlarining taqqoslanish va ishonchlilik darajasini pasaytiradi. Standartlarga muvofiq hisob siyosati esa moliyaviy qarorlarning asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi.

Firibgarlik holatlari va ma'lumotlarni sun'iy o'zgartirish moliyaviy hisobotda axborotni noto'g'ri aks ettirishga qaratilgan harakatlarni ifodalaydi. Jumladan, daromadlarni noto'g'ri tan olish, xarajatlarni asossiz ravishda oshirish yoki kamaytirish, aktivlar qiymatini sun'iy ko'rsatish kabi amallar moliyaviy hisobot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu holatlarning oldini olish korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Soliq qonunchiligi hamda moliyaviy hisobot standartlarining muntazam yangilanib borishi buxgalteriya hisobini yuritishda moslashuvchanlik va professional tayyorgarlikni talab qiladi. Amaldagi me'yorlarga o'z

2 Muallif ishlanmasi.

vaqtida moslashilmasligi hisob-kitoblar va hisobotlarda nomuvofiqliklar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, qonunchilikdagi o'zgarishlarni tizimli monitoring qilish va tezkor joriy etish moliyaviy majburiyatlarning to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi.

Zamonaviy buxgalteriya va moliyaviy hisobot jarayonlari raqamlashtirish va avtomatlashtirishga keng tayanadi. Axborot texnologiyalari infratuzilmasining yetarli darajada ishlamasligi, dasturiy ta'minotdagi nosozliklar yoki tizimlararo integratsiyaning buzilishi ma'lumotlarning kechikib yoki noto'g'ri qayta ishlanishiga olib kelishi mumkin. Mazkur jarayonlarni takomillashtirish axborotlar ishonchligini oshirish va foydalanuvchilarning qaror qabul qilishdagi aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, buxgalteriya ma'lumotlari sifati, ichki nazorat tizimi samaradorligi, hisob siyosatining standartlarga muvofiqligi, firibgarlik holatlarining oldini olish, normativ-huquqiy o'zgarishlarga moslashuvchanlik hamda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish moliyaviy hisobot ishonchligini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi. Ushbu omillarni tizimli tahlil qilish va ularni takomillashtirishga qaratilgan choralar moliyaviy hisobot sifati oshirish hamda barqaror boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobot ishonchligini oshirish jarayoni har qanday korxona va tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investitsiyalarni jalb etish, kredit va soliq siyosatini asoslash hamda korporativ boshqaruvni samarali amalga oshirishda muhim mexanizm hisoblanadi. Ishonchli moliyaviy hisobot foydalanuvchilar uchun aniq, to'liq va barqaror axborot taqdim etib, investitsiya, kredit, soliq va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda mustahkam axborot asosini shakllantiradi. Shu bilan birga, bunday hisobot tashkilotda moliyaviy nazorat va ichki audit jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarishga xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobot ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga buxgalteriya ma'lumotlarining yetarli darajada aniqlik va to'liqlikka ega bo'lmasligi, ichki nazorat tizimining samaradorligi pastligi, hisob siyosatining amaldagi standartlarga muvofiq shakllantirilmaganligi, shuningdek, korporativ moliyaviy axborotning noaniqligi va foydalanuvchi ehtiyojlariga yetarlicha mos kelmasligi kiradi. Ushbu omillarni bartaraf etish moliyaviy hisobot ishonchligini oshirishning ustuvor yo'nalishi sifatida qaraladi.

Moliyaviy hisobot ishonchligini yanada kuchaytirish maqsadida korxonalarda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi: buxgalteriya va audit xodimlarining malakasi hamda professional kompetensiyasini oshirish; ichki nazorat va audit tizimlarini rivojlantirish hamda ularning samaradorligini muntazam baholab borish; hisob siyosati va moliyaviy hisobot standartlariga qat'iy va uzluksiz rioya qilish; moliyaviy hisobotlarning foydalanuvchi uchun ahamiyatligini ta'minlash, ya'ni hisobotlarda barcha muhim jihatlarni ochiq, to'liq va tushunarli shaklda ifodalash. Mazkur chora-tadbirlar moliyaviy axborot sifati oshirish va barqaror boshqaruv qarorlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ripoll, L., Matos, J. C. (2020). Information reliability: Criteria to identify misinformation in the digital environment. // *Investigación Bibliotecológica*, 34(84), 79–101. <https://doi.org/10.22201/iibi.24488321xe.2020.84.58115>
2. Trung Nguyen Kim Quoc, Van Tran Hong, Tuan Le Van, Hang Nguyen Minh, Oanh Nguyen Thi Ngoc. (2024). Financial statements' reliability affects firms' performance: A case of Vietnam. // *Journal of Eastern European and Central Asian Research*, 11(1), 143–155.
3. Arcas-Pellicer, M. J., Pina, V., Torres, L. (2022). Corporate governance and reliability of financial reporting in central government agencies. // *Revista de Contabilidad – Spanish Accounting Review*, 25(1), 76–88.
4. Barth, M. E., Landsman, W. R., Lang, M., Williams, C. (2012). Are IFRS-based and US GAAP-based accounting amounts comparable? // *Journal of Accounting and Economics*, 54(1), 68–93. <https://doi.org/10.1016/j.jacceco.2012.03.001>
5. Drujilovskaya, T. Yu., Korshunova, T. N., Khodyrev, A. A. Prinsipy uchetnoi politiki i dostovernost' otchetnoy informatsii kak ee tsel' // *Mezhdunarodnyi bukhgalterskii uchët*, 2013, № 24, 2–16-betlar.
6. Xajimuratov, N. Sh. Moliyaviy hisobotning ishonchligini ta'minlash yo'nalishlari // *Iqtisod va moliya*, 2020, 3(135), 72–77-betlar.
7. Abdug'aniyeva, S. A. Moliyaviy hisobotning mazmuni, maqsadi va vazifalari: xalqaro standartlar nuqtai nazaridan tahlil // *Journal of Economy, Tourism and Service*, 4(3), 2025, 28–33-betlar.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100